

IBN ARABSHOH VA SHAROFIDDIN ALI YAZDIY ASARLARIDA AMIR TEMURNING ILM-FAN AHLLARIGA BO‘LGAN MUNOSABATI TO‘G‘RISIDA BILDIRILGAN FIKRLAR TAHLILI

Sharifova Nazokat Olimboy qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Ibn Arabshoh va Sharafuddin Ali Yazdiyning Amir Temur haqidagi asarlarida Amir Temurning ilm-fan ahllariga bo‘lgan munosabati haqida bildirilgan fikrlarni umumlashtirib, o‘zaro taqqoslab yakdil bir xulosaga kelishga harakat qildik. Amir Temur shaxsiga nisbatan turli qarama-qarshi fikrlar mavjud bo‘lgan hozirgi jarayonlarda bu albatta o‘zining dolzarb ahamiyatiga ega.*

Kalit so‘zlar: *Amir Temur, davlat arbobi, homiy, Ibn Arabshoh, ilm-fan, olim, Ibn Xaldun, ta‘lim, madrasa, madaniyat.*

Аннотация: *В данной статье мы попытались обобщить и сопоставить мнения, высказанные в трудахИбн Арабшахом и Шарафуддином Али Язди об Амуре Тимуре об отношении Амира Тимура к людям науки и прийти к единодушному выводу. В нынешних процессах, когда существуют разные противоположные мнения относительно личности Амира Тимура, это, конечно, имеет актуальное значение.*

Ключевые слова: *Амур Тимур, Ибн Арабшах, Шарафуддин Али Язди, наука, образование, ученый, Ибн Халдун, мелресе, культура.*

Abstract: *In this article, we tried to summarize and compare the opinion expressed in the works of Ibn Arabshoh and Sharafuddin Ali Yazdi about Amir Temur about Amir Temur’s attitude to the people of science and come to a unanimous conclusion. In the current processes, where there are different opposing opinions regarding the personality of Amir Temur, this is of course of urgent importance.*

Key words: *Emir Timur, Ibn Arabshah, Sharafuddin Ali Yazdi, science, Ibn Khaldun, education, madrasa, scientist, culture, art.*

Buyuk sarkarda va davlat arbobi bizga davlat boshqaruvi tuzuklaridan tortib, jahon tarixiga kirgan noyob arxitektura va qadimiy me‘morchilik durdonalarigacha bo‘lgan ulkan merosni qoldirdi. U yashab, mehnat qildi, yerlarni zabt etdi va o‘z tarixini - buyuk insonning tarixini yaratdi.



Amir Temur haqida so'z ketganda, uning ko'proq siyosiy tarix, harbiy yurishlar, diplomatik munosabatlar bilan bog'liq tomonlariga ko'p e'tibor beriladi. Uning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy davri tarixi unchalik batafsil yoritilmaydi. Vaholanki, Sohibqiron Amir Temur davlatning siyosiy ishlaridan tashqari, ma'rifatparvarlik, obodonchilik, hunarmandchilik va san'atning rivojlanishi uchun ham doim alohida e'tibor bilan qaragan. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni muvofiqlashtirish jarayonida doimo qonun va to'ro-tuzuklarga suyanib ish tutgan Temur, "Temur Tuzuklarida bu masalaga bir bor ajratadi. Unga ko'ra, ijtimoiy soha ishtirokchilari – dehqon, hunarmand, savdogar va soliqchi, ob'ektlari – yer-suv, hosil va boshqalarning har birining o'z o'rnini va vazifasi aniq belgilab qo'yilgan. U barcha ijtimoiy tabaqalarga birday munosabatda bo'lgani va, eng muhimi, jamiyatni boshqarishda ularning har birining imkoniyatlaridan to'la foydalanishga intilgan. Bu borada Amir Temur ilgari surgan g'oya ham aniq: Kuch – adolatda. Buning isboti sifatida quyidagi so'zlarni keltirish kerak: "Temur tamg'asining naqshi "rosti rasti" bo'lib, bu «haqgo'y bo'lsang, najot topasan" demakdir. Uning otlaridagi tamg'a, tanga-yu tillolariga zarb beriladigan (asosiy) betgi ham uch halqadan iborat edi. Ko'pincha uning majlisida uyatsiz so'zlar, qon to'kish, asir olish, nahb-u g'orat qilish va haram (haqi)ga haqorat gaplar bo'lmasdi."¹

Temur ilm ahllariga homiylik qilgan, o'z davlatining iqtisodiy tomonidan mustahkamlash hamda obodonchiligini yuksaltirish yo'lida ularga suyanib ish tutgan. Bu borada mashhur tarixchi sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida keltirilgan Temur tomonidan 806/1404 yili Boilkan shahrida olim-u fuzalolar kengashini chaqirtirganligi haqidagi ma'lumoti diqqatga sazovordir. Bu kengashda Amir Temur nutq so'zlab, jumladan, quyidagilarni aytgan: " Fan va dinning mashhur kishilari o'z maslahatlari bilan podshohlarga yordam berib kelganlar. Sizlar esa menga nisatan bunday qilmayabsizlar. Mening maqsadim, mamlakatda adolat o'rnatish, tartib va tinchlikni mustahkamlash, fuqaroning turmushini yaxshilash, yurtimizda qurilishni kuchaytirish, davlatimizni rivojlantirishdir. Sizlar bu ishlarni amalga oshirishda menga o'z maslahatlaringiz bilan ko'maklashishingiz kerak... Agar oldin bizning diqqat-e'tiborimizda o'zga mamlakatlarni ishg'ol qilish uchun bo'lgan harbiy yurishlar turgan bo'lsa, endilikda mamlakatda xotirjamlik o'rnatishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish bosh vazifamizdir. Bu oliyanob ishda menga yordam berishlaringizni iltimos qilaman".²

Amir Temur shaxsini yoritishda tanqidiy ruhda yozilgan Ibn Arabshohning "Amir Temur tarixi" asarida Temur shaxsi haqida quyidagi so'zlarni o'qish mumkin: "

¹ Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi – T.:Fan,1996, 393-bet.

² Naim Norqulov. Temuriylar davri madaniyati tarixidan lavhalar – U.: Xorazm nashriyoti,1996, 11-bet



Temur olimlarga mehribon bo'lib, sayyid-u olimlarni o'ziga yaqin tutardi. Ulamolar va fozillarga to'la-to'kis izzat ko'rsatib, ularni har qanday kimsadan batamom muqaddam ko'rardi. Ularning har birini o'z martabasiga qo'yib, o'z ikrom-u hurmatini unga izhor etardi. Ularga nisbatan o'z muruvvati bisotini yoyardiki, bu muruvvati uning haybati bilan aralash edi. Ular bilan mazmunli bahs ham yuritar ediki, bu bahsida insof-u hishmat bo'lardi. Uning lutfi qahri ichiga qorilgan bo'lib, qo'rsiligi ezguligi orasiga qo'shilgan edi...”³

Chingiziylar hukmronligi davrida taraqqiyotda ancha oqsab qolgan Movaraunanahr XIV asrning o'rtalariga kelib siyosiy boshboshdoqlik sabab yanada madaniy, iqtisodiy, siyosiy tushkunlikka tushib qolgan edi. Taxtga chiqishi bilan Amir Temur chiqargan dastlabki farmonlardayoq bu ahvolni to'g'rilash va yanada yaxshilash niyati borligi yaqqol sezilib turardi. Xususan, uning buyrug'i bilan oliy o'quv yurtlari bo'lmish madrasalar va ularning o'quvchilarini moddiy jihatdan ta'minlab, stipendiyalari oshirilishi ko'zda tutilgan edi. Bu borada Muiniddin Natanziy o'zining “Muntaxob ut-tavorix” asarida quyidagilarni yozadi: “ Faqirlar va ilm toliblari nafaqalari vaqf mulklari va madrasalarga, har birining holiga yarasha va voqif shartiga muvofiq belgilangan. Ana shunday vaqflarga hech ham va mutlaqo soliq solinmagan. Amir Temur o'z vazirlariga vaqf mulklaridan biron tanga mening xazinamga tushmasin deya ko'rsatma bergandi. Sohibqiron ilm, hikmat ahli va donishmand kishilar bilan tezda kirishib ketadi.”

Ilm va madaniyatga bo'lgan bunday munosabatni Sohibqiron umrining oxirigacha saqlab qoldi. Bu yo'ldan uning avlodlari ham yurdilar. Natijada Temuriylar zamonida ko'plab madrasalar, kutubxonalar, maktablar barpo etildi. Ularda o'qish va o'qitish uchun dunyoning turli burchaklarida yetuk olimlar taklif etildi, jalb qilindi. Bu ishlarning samarasi o'laroq, XIV-XV asrda o'lkamizda yana bir ilm-fanning rivojlanish bosqichi – Ikkinchi Renessans amalga oshirildi. Shu sababli Amir Temurni hech ikkilanmasdan, temuriylar renessansining tamal toshini qo'ygan shaxs sifatida ko'rsatsak bo'ladi.

Amir Temur shaxsiyatining tadqiqotchilari Hazrat Sohibqironning madaniyat va ma'rifatning buyuk homiysi ekanligini tasdiqlab, uning yana bir ijobiy xislatini ta'riflaydilar. Sohibqironning bu xislati shunda namoyon bo'ladiki, u qaysi mamlakatda bo'lmasin, u yerdagi olimlar, musavvirlar, san'atkorlar, me'morlar, hunarmandlar va hokazo ijod ahli bilan ko'rishar, ular bilan qizg'in suhbat qurar,

3.Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi – T.: Fan, 2019,397-bet



ularga zarur shart-sharoitlar yaratib berar va ular orasidan eng iste'dodli ijodkorlarni o'zi bilan birga poytaxt – Samarqandga olib ketar edi.⁴

Yuqoridagi fikrlarga isbot sifatida shuni aytish kerakki, XIV asr arab tarixchisi va faylasufi Ibn Xaldun (1332-1406) Amir Temur bilan uchrashishga musharraf bo'lgan. Amir Temurning Shomga yurishi vaqtida Damashq shahrining Amir Temurga topshirilishi shartlari haqida muzokara olib borish maqsadida brogan delegatsiya tarkibida Ibn Xaldun ham bo'lgan. Ibn Xaldun Amir Temur shaxsiga baho berar ekan, bir tomondan, uning tashqi siyosiy faoliyatiga salbiy ko'z bilan qarasa, ikkinchi tarafdin, uning harbiy tarix sohasidagi teran fikrlaridan hayratga tushgan. Ibn Xaldun va Amir Temurning uchrashuvi jarayoni Ibn Arabshohning "Amir Temur tarixi" asarida keltirib o'tilgan. Xususan unda Ibn Xaldun tilidan quyidagi so'zlar Temurga qarata aytilgan edi:

"Ey Mavlono Amir! Misr sendan o'zga noib hukmidan yoinki unda, faqat sening amringdan boshqa amr joriy bo'lishidan xorijdur. Senga barobar keladigan (kimsa) mening nasl-u nasabim, ahli-yu avlodim, vatan-u mamlakatim, do'st-u birodarlarim, xesh-u aqrabolarim, odamlar podshohlari tugul barcha orqayu bosh, balki butun insoniyat orasida ham yo'qdir. Chunki ular hammalari bo'htonlik qomida (ov boiib) tutilib qolganlar. Men faqat o'z umrimning (behuda) o'tib, o'z davrimning (befayz) ketganiga achinib, afsuslanaman. (O'tgan umrim) qanday qilib sening xizmingdan o'zganing xizmatida o'tdi? Nega mening ko'zlarim sening siymong nurlarini o'ziga surma qilib surmadi? Lekin qazo o'tkinchidir. Mayli, sening panohingda qaytadan ikkinchi umrimni boshlayman, sening ko'lankangdan meni uzoqlashtirishga zamonga tajovuz qildirmayman. Boqiy umrimni (sening) xizmingga bag'ishlab, zoye ketgan umrimni topib, sening quyushqoningga mahkam yopishib olaman. Ushbu vaqtni hayotimning eng azizi, (erishgan) martabamning eng oliysi, holatimning eng sharafli deb hisoblayman. Lekin faqat meni - ular yo'lida umrimni xazon qilgan, (ular) tasnifida o'z ilmlarim javharini sarf etgan, ularni tartib bilan bitishda kechani bedorlikda, kunduzni tashnalikda o'tkazgan narsalarim - kitoblarim qaddimni bukmoqdalar. Men ularda dunyo tarixining ibtidosidan zikr aylab, sharqu g'arb podshohlari siyratlari (tula-to'kis) bayon qildim. Agar men ularni qo'lga kiritsam (men seni u (podshoh)lar shodasining injusi qilib, ular javharining sarasi o'rniga qo'yardim. Sening siyratlaring bilan ular davri xiratlarini bezab, ular asrlari peshanasiga (sening) davlatingni to'lin oy misoli tasvirlardim. «Chunki sen mardu maydonlar otasi, jang-u jadal zulmatli maydonlaridan sharq-u g'arbgga o'z zafar oyini porlatuvchisan; har bir vali tilida

⁴ Naim G'oyibov. Amir Temur davri ma'naviyati – T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 2001, 15-bet



kashf qilinuvchisan, amiral-mo'minin Aliga mansub qilingan jaff va zij ilmlarida ishora qilingan kishi hamda oxir zamonda muntazir bo'linadigan sohibqiron ham sensan. U (kitob)lar Qohirada bo'lib, agar men ularni qo'lga kiritsam, sening uzangingdan aslo ajralmayman va ostonangdan (bir qadam ham) jilmayman. Tangriga hamd bo'lsinki, mening qiymatimni biladigan, xizmatimni qadrlaydigan va hurmatimni o'rniga qo'yadigan kishini menga ato qildi"⁵. Ibn Xaldundan mana shunday maqto'v so'zlarini eshitgan Temur o'sha paytda unga savol bera boshlaydi. Undan Mag'rib shaharlari va yerlari vasfini so'rab, uning mavzolari-yu yo'llari, qishloqlari-yu so'qmoqlari, qabila-yu xalqlarini (batafsil), aniq bayonlab berishini so'radi. Bundan maqsad Ibn Xaldunni imtihon qilish edi. Uning ilm darajasi qandayligi va so'zlari chin yoki yolg'onligini bilish uchun shunday yo'l tutadi Temur. Ibn Xaldun hammasini xuddi ko'z o'nggida turgandek bayon qilib beradi. Shunda Temur uning ilmiga qoyil qolib, yonida o'tirganlarga qarata, " Unga endi iqtido qilinglar. U sizning imomingiz", - deb xitob qiladi⁶. Keyin Temur Ibn Xaldun bilan uni Qohiraga borib, o'z ahliyu bolalari hamda ajoyib kitoblarini olib, faqat yo'l masofasidan boshqa narsaga vaqt sarflamasdan, cheksiz orzu umidlar, oliyjanob, ishonchli va'daga amin bo'lgan holda uning huzuriga qaytishi to'g'risida ahdlashishadi.

Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida Movarounnahr va Xurosonda ta'limga e'tibor, ilm- fanga homiylik davlat siyosatiga aylandi. Barcha shaharlarda oliy ta'lim dargohlari madrasalar barpo etilib, o'z davrining yetuk olim-u ulamolari tolibi ilmlarga dars berishga jalb etildi-yu Amir Temur va temuriylar davri qadim Turon o'lkasida maorif va ta'lim tizimi, ilm-fan yuksak rivojlangan davr sifatida ahamiyatlidir. Temuriylar davri renessansi rivoji bevosita Amir Temur asos solgan ulkan saltanatda adolatli boshqaruv tizimi barpo etilganligi katta o'rin tutgan. Qudratli saltanat va ma'rifatli jamiyat barpo etishda qadim turkiy davlatchilik an'analari va islomiy shariatga tayanib ish tutgan Amir Temur har qanday taraqqiyotning asosi sifatli ta'lim tizimi ekanligini chuqur anglagan edi. Shu sababli Sohibqiron birinchi galda ta'lim va tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish, ilimli, ma'rifati shaxslarning jamiyatdagi mavqeyini ko'tarish yo'lidan bordi. Ulkan saltanatning barcha shahar va yirik qishloqlarida ko'plab boshlang'ich maktablar barpo etildi. Tarixiy manbalarning dalolat berishicha, bu davrda o'g'il bola 4 yil, 4 oy va 4 kunlik bo'lganda maktabga berish an'anasi amalda bo'lib, boshlang'ich ta'lim ulkan saltanatning barcha madaniy o'lkalarini qamrab olgan edi.

⁵ Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi – T.: Fan,1996, 396-bet.

⁶ Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi – T.: Fan,1996,397-bet.



Ahli ilmni yuksak qadrlagan Sohibqiron olimu fuzalolar bilan tez tez kengashib turgani tarixiy manbalarda qayd etilgan. Xususan, Sharofiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” asarida Amir Temur biror masalani hal qilmoqchi bo’lsa, avval shu sohaning bilimli mutaxassisleri, olimlar bilan maslahat qilganligini qayd etadi. Amir Temur tarixchi olimlarni juda e’zozlagan va Sohibqironning buyrug’i bilan saroyda bitikchilar, tarixchilar faoliyati yo’lga qo’yilgan edi. Bu Amir Temur va temuriylar davrida tarixnavislik fani yuksak darajada rivojlanishiga olib keldi.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, olim-u ulamolar Amir Temur saltanatida katta hurmatga va mavqega ega ijtimoiy qatlamga aylangan ediki, bu Movarounnahr va Xurosonda Ikkinchi Islom uyg’onish davrini yuzaga chiqardi. Samarqand, Kesh, Buxoro, Hirot va boshqa shaharlarning ma’rifat va ilm fan markazlariga aylanishiga olib keldi. Buyuk ipak yo’li bo’ylab xalqaro savdo va madaniy aloqalar tiklandi, ilm fanning turli sohalaridagi hamkorlik yo’lga qo’yildi, qo’shni va uzoq mamlakatlar bilan elchilik munosabatlari o’rnatildi. Bu o’zgarishlar zamirida Amir Temur asos solgan va ko’plab temuriy hukmdorlar davom ettirgan ilm fanga, madaniyat va san’atga, maorifga e’tibor, ularga homiylikka yo’naltirilgan davlat siyosati muhim ahamiyatga ega bo’lgan. Ulkan saltanatning turli hududlarida n Samarqandga kelgan olim-u ulamolar ijodi, ularning ilm-u fanning turli sohalarida olib borgan ilmiy faoliyatlari qadimiy Turon o’lkasida yangi renessans davrini yuzaga kelishida asosiy o’rin tutdi. Dunyo tarixidan ma’lumki ilm fan taraqqiyoti katta sarmoya va davlat homiyligini talab etadi. Buni ma’rifatli hukmdor Amir Temur teran anglagani bois ulkan saltanatning barcha hududlarida ahli ilm, ahli ijodga homiylikni davlat siyosati darajasiga chiqardi. Bu siyosat natijasida Islom dunyosining intellektual salohiyati Turon poytaxti Samarqandga va boshqa shaharlarga oqib kela boshladi. Olimlar jamiyatning nufuzli ijtimoiy qatlamiga aylandi. Ularning yashashi va ilmiy faoliyat bilan shug’ullanishlari uchun barcha shart sharoitlar yaratildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ibn Arabshoh “Amir Temur tarixi” - T.: Fan – 1996.
2. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma – T.: “Sharq” nashriyot- matbaa konserni, 2017.
3. Naim Norqulov. Temuriylar davri madaniyati tarixidan lavhalar –U.: “Xorazm” nashriyoti, 1996.
4. Naim G’oyibov. Amir Temur davri ma’naviyati – T.:G’afur G’ulom nashriyoti, 2001

